

“Ijro.gov.uz” tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligida ijro intizomi holati to’g’risida ma’lumot (noyabr oyi bo’yicha)

“Ijro.gov.uz” tizimida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligiga kelib tushgan O’zbekiston Respublikasi qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari bo’yicha 2025 yilning yanvar-noyabr oylarida **1934 ta** topshiriq ijrosini ta’minlash belgilangan.

Joriy yilning 25-noyabr holatiga ko’ra, mazkur topshiriqlardan **1905 tasi (yoki 98,5 foizi)**ning ijrosi ta’minlandi.

Qolgan **29 ta** topshiriq ijrosi bo’yicha ishlar davom ettirilmoqda.

2025 yilda jami topshiriqlarning **91 tasi (4,8 foizi)** belgilangan muddatni buzgan holda bajarilgan. Qolgan topshiriqlarning barchasi **belgilangan tartibda nazoratdan yechilgan.**

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashda ijro intizomini buzgan tarkibiy bo’linmalar va tizim tashkilotlarining mas’ul rahbar

va xodimlariga nisbatan **intizomiy chora tadbirlari** ko’rib borilmoqda.

Ijro intizomini mustahkamlash masalalari Ekologiya vazirligi hay’at majlislarida har chorak yakuni bilan, vazirlik rahbariyati ishtirokida

haftada 2 marta (dushanba, juma kunlari) o’tkaziladigan yig’ilishlarda muhokama qilib borildi.

Joriy yilning noyabr oyida O’zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O’zbekiston Respublikasining Bosh vaziri kotibiyati hamda Adliya vazirligining mas’ul xodimlarini jalb qilgan holda Ekologiya vazirligi markaziy apparati tarkibiy bo’linmalari boshliqlari, tizim tashkilotlari va hududiy boshqarmalar rahbarlari ishtirokida “Edo.ijro.uz” tizimida “2025-yil yanvar-oktyabr oylaridagi topshiriqlar ijrosi yakunlariga hamda muddati joriy yil noyabr-dekabr oylarida belgilangan topshiriqlarni bajarish yuzasidan kechiktirib bo’lmaydigan chora-tadbirlar” mavzuida iqtisodiy o’qish tashkil etildi.

Joriy oy yakunigacha “Ijro.gov.uz” tizimida vazirlik tomonidan bajarilishi lozim bo’lgan topshiriqlar ijrosining borishi 2025 yil 14 noyabrda o’tkazilgan yig’ilishda tanqidiy muhokama etildi. Barcha topshiriqlar ijrosi holati bo’yicha mas’ul tarkibiy bo’linmalari va tizim tashkilotlari rahbarlarining hisobotlari eshitildi, muhokama yakunlari bo’yicha topshiriqlar ijrosini jadallashtirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilab olindi (14.11.2025y.

02-05/3-84-son bayon).

Bugungi kunda topshiriqlar ijrosini to’liq ta’minlash bo’yicha ishlar davom ettirilmoqda.